

## SAMARQAND – MOZIY GAVHARI

**Sharipova Nargiza**

*Registon ansambli sid-ekskursovodi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Samarqand shahri atrofidagi me'moriy yodgorliklar, o'zbek milliy mentalitetiga xos eng muhim jihatlar ya'ni xalqimizning ma'naviyatga bo'lgan tug'ma chanqoqligi, ajdodlarimiz tarixi, ular tomonidan yaratilgan ma'naviy, madaniy yodgorliklarni qadrlash, mamlakatimiz hududida ko'p ming yillik tarix davomida insoniyat tomonidan turli yo'llar bilan yaratilganligi*

**Kalit so'zlar:** *Me'moriy yodgorliklar, ma'naviyat, madaniy qadriyatlar, valiy, yuksak ahloq, ilohiy fazilatlar*

### **KIRISH**

Inson ko'ngli hamisha komillikka, yetuklikka talpinib kelgan. Islom ilohiyotiga ergashishda komillikka intilish, ular siyomosida o'zlikni anglash, yuksak axloq, ilohiy fazilat va sifatlarni mukarram deb hisoblash, inson ma'naviyatini qadrlash va boyitish niyati mujassamdir.

Ko'p ming yillik tarix davomida insoniyat turli ta'limot va qarashlar tizimini yaratdi, o'zini va olamni anglash sari tinimsiz intilib keldi. Islom dunyosida paydo bo'lib, rivojlangan tasavvuf ham ana shunday intilishlar, fikriy va hissiy izlanishlar, kashfiyotlarni jamlagan ta'limot bo'lib, ko'p jihatlari bilan diniy tafakkur tushunchalariga tayanadi, ayni vaqtda bir qancha jihatlari bilan o'zaro farqlanadi ham.

### **ASOSIY QISM**

Mustaqillik tufayli yurtimizdagi barcha ziyoratgohlar va ularning me'morchilik tizimi, mezonlari tubdan qayta ko'rib chiqilishi tabiiydir. Gap umuman barcha ma'naviy qadriyatlar va ziyoratgohlar tizimi haqida ketmoqda. "Chunki ularning barchasi ittifoq davrida kommunistik aqidalarga moslashtirilgan yoki ular orqali talqin qilingan edi. Shu bois biz milliy mustaqillikni mustahkamlash, xalqimizni eng ilg'or millatlar darajasiga ko'tarilishiga ko'maklashish maqsadlaridan kelib chiqib, butun qadriyatlar tizimini qayta baholamoqdamiz, asl madaniy merosimizni to'la tiklab, qayta anglab olmoqdamiz" [2].

Yurtimizda ham mustaqillik yillarida madaniy yodgorliklar, jumladan arxeologik yodgorliklarni saqlash, himoya qilish va ulardan foydalanish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Samarqand shahrining tarixiy qismidagi milliy madaniy meros obyektlari tubdan qayta ta'mirlanib, hudud tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida mazkur hudud 2001 yil YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand-madaniyat chorrahasi" nominatsiyasi bilan kiritilgan. Uch qismga bo'lingan hududda jami 513 ta moddiy-madaniy meros obyektlar joylashgan. Sovetlar davrida Samarqand shahridagi yodgorliklarni atroflicha o'rganishni yo'lga qo'yish maqsadida bu yerga "Qadimgi

yodgorliklarni saqlash bo'yicha Rossiya komissiyasi" vakillaridan me'mor D.I.Iofan hamda rassom D.K.Stepanov yuborildi. Ular shahardagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni o'rganish ishiga yaqindan yordam berdi.

Samarqand viloyati hududida 1105 ta arxeologik, 670 ta me'moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 ta memorial, jami 1851 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud [5]. Ular viloyat hokimining 2013 yil 14 noyabrdagi qarori bilan davlat muhofazasiga olingan.

Robinjon, Charxintepa, Uchtepa (Narpay tumani), Ko'ktepa (Payariq tumani), Quldortepa (Urgut tumani), Arabtepa, Navbog'tepa (Samarqand tumani), Tillatepa, Bo'ritepa, Kapsatabobotepa (Kattaqo'rg'on tumani), Kumushkent, Sug'uda (Oqdaryo tumani), Mingtepa (Jomboy tumani) kabi yodgorliklar shular jumlasidandir. Nurobod tumani Sazag'on qishlog'ida joylashgan antik davrga oid qal'a, Pastdarg'omtumanida joylashgan Qo'rg'ontepa, Narpay tumani Ko'prikboshi qishlog'idagi Langartepa, Yonariq qishlog'idagi Shirinxotintepa, Urg'uchqishlog'idagi Qo'shtepa, Xo'jakorson qishlog'idagi Sho'rtepa, Payariq tumanida joylashgan Qorovultepa va uning yaqinida joylashgan mozorqo'rg'on kabi yodgorliklar yurtimiz, xususan viloyat tarixining nechog'lik uzoq o'tmishga borib taqalishini ifodalab turibdi.

Samarqand viloyati tumanlarida madaniyat yodgorliklarini topish va aniqlash maqsadida O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyatining bo'limlari tashkil etildi. 1968 yilda mehnatkashlar deputatlari Samarqand viloyat va shahar sovetlarining ijroiya qo'mitalari, respublika Madaniyat vazirligi hamda uning Yodgorliklar va tasviriy san'atni saqlash bosh boshqarmasi tomonidan Sherdor, Ulug'bek, Tillakori madrasalari, Shohizinda, Go'ri Amir maqbaralari kabi dunyoga mashhur yodgorliklarni tadqiq etish va ularni ta'mirlash-tuzatish ishlari borasida ko'plab tadbirlar o'tkazildi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Samarqand shahridagi ziyoratgohlarga qaraganda, Samarqand shahri atrofidagi ziyoratgohlariga turistlar soni biroz kamroq. Chunki, atrofdagi ziyoratgohlarga infratuzilmalarining yaxshi tashkil qilinmaganligi hamda turistlarni keng jalb qila oladigan xizmatlarning ko'zga ko'rinmayotganligidadir. Buni to'liq o'rganib chiqish natijasida ko'plab kamchilik va yutuglarning guvohi bo'ldim. Masalan: Al-Motrudiy maqbarasiga birinchi borayotgan inson topishi biroz qiyin va bu muqaddas joyga boradigan yo'l talab darajasida emasligi. Islom mafkurasiga aniqlik kiritgan Al-Motrudiy qabrlari joylashgan bu ulug' zamin "Chokardiza" qabristoni Islom olamida 3-o'rinda turadi. Moturidiya ta'limotini o'rganar ekanmiz insonlar qalbida, ongi va shuurida o'tmishga, ajdodlarga, ona yurtimizga bitmas-tuganmas hurmat va ehtirom tuyg'ularini kuchaytirish bilan birga, o'zlikni anglashga, kindik qonito'kilgan ona zaminga mehr-muhabbat bilan qarashga, teran tomirli tarixiy ildizlarini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Al-Moturidiy yashagan davr Somoniylar hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo'lib, so'ngra IX asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko'chirildi.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganimizda, bugungi kundagi Samarqand shahri atrofidagi ziyoratgohlarning moddiy-me'moriy holatlari, me'moriy landshaft yechimlari talab darajasida emas. Bunday tarixiy obyektlarni chuqur o'rganish va ilmiy izlanishlar natijasida ko'plab ma'lumotlar yig'ildi va ularning bugungi kundagi holatlari o'rganildi. Ularning funksional vazifalriga qarab takliflar ishlab chiqildi. Ziyoratgohlarning joylashgan hududlarining me'moriy landshaft yechimlari va ziyoratchilar uchun yangidan yangi loyiha takliflari ishlab chiqildi. Samarqand tumani Ishchilar ko'chasida joylajgan Xo'ja Ahror Vali va Nodir Devonbegi madrasalari yuzasidan ham yangilik kiritildi. Tadqiqotlar natijasida turistlarni ko'proq jalb qilish maqsadida aynan shu yerning hovli qismidan keng foydalansa bo'ladi, chunki muhit juda chiroyli.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild.-T.: "O'zbekiston". 2017.592 b.
2. Erkaev A. Tafakkur erkinligi.-T.: "Ma'naviyat". 2007. 160 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi.-T.: "O'zbekiston". 2018. 80 b.
4. Ipak yo'li afsonalari(Joy nomlari bilan bog'liq afsonalar). -T.: "Fan" 1993.127 b.
5. AhmedovE.O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-T.: "Tibbiyot". 2002. 120 b.
6. Salimov O. Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda tadqiqot asoslari.- Toshkent,.2013.
7. Manoev S.B. O'zbekiston zamonaviy shaharsozligida me'moriy ansambl va komplekslar. -Samarqand: Zarafshon, 2014.-160 bet.